



UDK:371.573.5.573.6

Gulxayo TO'YCHIYEVA,
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: gulxayomuhammadaminovna@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, PhD U.Obidjanov taqrizi ostida

KOUCHING YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada kouching yondashuvi asosida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalasi o'rganilgan. Kouchingning nazariy asoslari, hozirgi pedagogik ta'limdagi muammolar va taklif etilgan innovatsion model tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari bo'yicha, kouching orqali talabalar refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish va amaliy faoliyatga tayyorlash samaradorligi oshirilishi mumkinligi isbotlangan. Taklif etilgan metodika O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan bo'lib, empirik ma'lumotlar asosida tasdiqlangan. Tadqiqot Namangan, Qarshi va Nizomiy nomidagi universitetlarda o'tkazilgan bo'lib, jami 444 nafar talaba ishtirok etgan.

Kalit so'zlar: Kouching yondashuvi, biologiya o'qituvchilari, pedagogik tayyorlash, metodika takomillashtirish, refleksiya, innovatsion model.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ КОУЧИНГОВОГО ПОДХОДА

Аннотация

В статье рассматривается вопрос совершенствования методики подготовки будущих учителей биологии к профессионально-педагогической деятельности на основе подхода коучинга. Анализируются теоретические основы коучинга, проблемы современного педагогического образования и предлагаемая инновационная модель. По результатам исследования доказано, что через коучинг можно повысить эффективность развития рефлексивных навыков студентов и подготовки к практической деятельности. Предлагаемая методика адаптирована к системе высшего образования Узбекистана и подтверждена эмпирическими данными. Исследование проведено в Наманганском, Каршинском и Низомийском университетах с участием 444 студентов.

Ключевые слова: Подход коучинга, учителя биологии, педагогическая подготовка, совершенствование методики, рефлексия, инновационная модель.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING FUTURE BIOLOGY TEACHERS FOR PROFESSIONAL PEDAGOGICAL ACTIVITY BASED ON THE COACHING APPROACH

Annotation

This article examines the improvement of the methodology for preparing future biology teachers for professional pedagogical activities based on the coaching approach. The theoretical foundations of coaching, current problems in pedagogical education, and the proposed innovative model are analyzed. The research results demonstrate that coaching can enhance the development of students' reflective skills and readiness for practical activities. The proposed methodology is adapted to the Uzbekistan higher education system and supported by empirical data. The study was conducted at Namangan, Karshi, and Nizomiy Universities with a total of 444 students participating.

Key words: Coaching approach, biology teachers, pedagogical training, methodology improvement, reflection, innovative model.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va amaliy faoliyatga tayyorlanishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, biologiya kabi tabiiy fanlar bo'yicha o'qituvchilar uchun pedagogik ko'nikmalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki refleksiv va innovatsion yondashuvlarni talab etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Milliy ta'lim dasturi doirasida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda [1].

Respublikamizning oliy ta'lim muassasalarida "Biologiya o'qitish metodikasi" o'quv fanlarini o'qitishda tashkiliy - metodik shart - sharoitlarni takomillashtirish, nazariy va amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish maqsadida 4+2 o'quv amaliyotini tashkillash bo'lajak o'qituvchilarni maktab jarayoni bilan bevosita uzviylikda kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlab borish kabi metodik didaktik model va metodik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi kouching yondashuvining pedagogik ta'limdagi o'rni bilan bog'liq. Kouching – bu shaxsiy rivojlanish va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan interaktiv usul bo'lib, o'qituvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshiradi [2]. Mavjud metodikalarda kouchingdan foydalanish cheklangan bo'lib, bu talabalarning amaliy faoliyatga tayyorlanishini pasaytiradi. Maqsad – kouching yondashuvi asosida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish va uning samaradorligini empirik baholash.

Tadqiqot metodlari. nazariy tahlil, so'rovnomalar, eksperimental modellar va statistik ishlov berish. Tadqiqot Namangan davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida

2023–2024 o'quv yillarida o'tkazildi, jami 444 nafar talaba ishtirok etdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kouching nazariyasi 20-asr oxirida rivojlangan bo'lib, J. Whitmore va T. Gallwey kabi olimlar tomonidan asos solingan [3]. Pedagogikada kouching o'qituvchilarning o'z faoliyatini refleksiya qilish va yangi strategiyalarni joriy etishga yordam beradi. Biologiya o'qitishida bu yondashuv laboratoriya ishlari, ekskursiyalar va interaktiv darslarni tashkil etishda qo'llaniladi [4].

O'zbekiston pedagogik adabiyotlarida kouching haqida tadqiqotlar mavjud, masalan, S. Sulliyeva va Q. Zokirovning "Biologiya o'qitish metodikasi" asarida kouchingning reflektiv komponenti ta'kidlangan [5]. Xalqaro tajribada, AQSh va Buyuk Britaniyada peer-coaching modellar biologiya o'qituvchilarining professional rivojlanishida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda [6].

Hozirgi holatda O'zbekiston oliy ta'limida bo'lak biologiya o'qituvchilarini tayyorlash an'anaviy darslar va amaliy mashg'ulotlarga asoslangan bo'lib, kouchingdan foydalanish 20% dan kam [7]. Bu talabalarda nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishni keltirib chiqaradi.

Biologiya o'qitish metodikasi bo'lajak biologiya o'qituvchisining kasbiy faoliyatga tayyorlovchi muhim va ilmiy-amaliy asoslarga ega bo'lgan fanlar qatoridan o'rin olgan bo'lib, uning rivojlanish tarixi asrlar davomida pedagogik g'oyalar va ta'lim texnologiyalarining o'zgarishi bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu fanning ilk rivojlanish tarixi XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida biologiya (botanika va zoologiya) fani sifatida alohida shakllana boshlagan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda fanni o'qitishda tabiatni to'g'ridan - to'g'ri kuzatish, gerbariyar tuzish va hayvonlar kolleksiyasidan foydalanish asosiy metodlardan edi. Yevropada I. Pestalossi, F. Gerbart va Ya.A.Komenskiy kabi pedagoglarni ilk asarlari tabiatni o'rganish va darslarni to'g'ri tashkil etish haqidagi g'oyalarini qamrab oladi. XIX asr oxirida tabiiy fanlarni o'qitish alohida ilmiy metodik qoidalarga asoslanib, o'qitish shakllari laboratoriya ishlari; ekskursiyalar; nazariy ma'ruzalarni amaliyot bilan bog'lash kabi usullar rivojlandi.

Pedagog olimlar tomonidan bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashga oid muammolar yuzasidan ilmiy tadqiqot izlanishlari olib borilgan bo'lsa-da, biroq kouching yondashuvi asosida bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish alohida tadqiqot ob'yekti sifatida yetarlicha o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, talabalarning 65% pedagogik ko'nikmalarni yetarli darajada egallay olmaydi, chunki metodika passiv o'qitishga asoslangan [8]. Biologiya o'qitishida muammolar: laboratoriya uskunalaridan foydalanishning past darajasi va ekologik loyihalarni boshqarish qobiliyati.

Kouching yondashuvi asosida kasbiy tayyorgarlik mazmuni, avvalo, talabalarining nazariy bilimlari, metodik ko'nikmalari, amaliy faoliyat tajribalari va shaxsiy-ijtimoiy kompetensiyalari uyg'unligida namoyon bo'ladi. Biologiya

Jadval 1.

Eksperiment natijalari

Ko'rsatkichlar	Eksperiment guruh (keyin)	Nazorat guruh	Farq (%)
Refleksiv ko'nikmalar	4.5	3.1	+45
Amaliy dars rejalashtirish	4.7	3.4	+38
Umumiy tayyorlik indeksi	4.5	3.2	+41

Tadqiqot natijalari kouching yondashuvining biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda samaradorligini tasdiqlaydi. Talabalarining 85% o'z ko'nikmalarini yaxshilaganini

o'qitish metodikasida kouching yondashuviga asoslangan ta'lim muhitini shakllantirishning asosiy maqsadi: talabada mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish; biologiya fanini individual yondashuv asosida o'zlashtirishga ko'maklashish; fanga qiziqishni oshirish va o'quvchi salohiyatini faol faoliyat orqali rivojlantirishdan iborat.

Yuqorida ta'kidlanganidek, "Biologiya o'qitish metodikasi" o'quv mashg'ulotlarida kouching yondashuviga amal qilishimiz talabaning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlik salohiyatini to'liq ochish, mustaqil fikrlash, o'z oldiga aniq maqsad qo'yish va unga yetishni rag'batlantiruvchi individuallashtirish metodik tuzilmani tashkil etishga bog'liqdir. Kouching asosidagi metodik tuzilma maqsadli motivatsion yo'naltirish – talabaning kelajakdagi pedagogik kasbi, unga erishish maqsadi, ehtiyojlari va shaxsiy qadriyatlarini aniqlanadi. Shaxsiy salohiyatni ochish - SWOT tahlil, "fikrlar xaritasi", "aqliy hujum" usullari orqali o'z kuchli va zaif tomonlarini anglash.

Kouching yondashuvi bu muammolarni hal qilishda samarali: u GROW modeliga (Goal – maqsad, Reality – haqiqat, Options – variantlar, Will – irodasi) asoslanadi [9]. Ushbu model talabalarga o'z darslarini rejalashtirish va baholashda yordam beradi. Masalan, peer-coaching sessiyalarida talabalar bir-birining darslarini kuzatib, fikr-mulohaza berishadi, bu refleksiyaning oshiradi [10].

Talabalarni kouching yondashuvi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimining tuzilishi va mazmunini modellash jarayonida asosiy prinsiplar — ko'rgazmalilik, aniqlik va ob'ektivlik inobatga olindi. Ushbu prinsiplar pedagogik tadqiqot jarayonidagi asosiy funksiyalarni belgilab beradi, chunki faqat ularga qat'iy rioya etilgan taqdirdagina modellash jarayoni samarali natija beradi. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi sifatida bu yondashuv empirik kuzatishlar bilan nazariy umumlashtirishni uyg'unlashtirishga imkon yaratadi. Bunda pedagogik ob'ektni o'rganish jarayonida bevosita kuzatuv, dalillarni yig'ish, mantiqiy tahlil tuzilmalari hamda ilmiy mavhum modellar qurilishi tajriba bilan uzviy bog'lanadi.

Tahlillar va natijalar. Taklif etilgan metodika kouching yondashuvini biologiya pedagogikasiga integratsiya qiladi va quyidagi bosqichlardan iborat:

Tayyorgarlik bosqichi: Talabalarga kouching asoslari haqida seminarlar o'tkazish (4 soatlik modul).

Amaliy bosqich: Peer-coaching guruhlarini tashkil etish (haftada 2 marta, 90 daqiqa). Har bir talaba o'z laboratoriya darsini rejalashtirib, hamkasbi tomonidan baholanadi.

Refleksiya bosqichi: Jurnal yuritish va coach (o'qituvchi) bilan individual sessiyalar.

Baholash bosqichi: Pre- va post-testlar orqali ko'nikmalarni o'lchash.

Ushbu model O'zbekiston Milliy ta'lim standartlariga moslashtirilgan bo'lib, biologiya o'qitishining Milliy dasturiga (ekologiya, genetika modullari) integratsiya qilingan [11]. Eksperiment guruhida (222 talaba) kouchingdan foydalanishdan oldin pedagogik tayyorlik indeksi 3.2 ball (5 balllik shkala bo'yicha), keyin esa 4.5 ballga oshdi ($p < 0.05$, t-kriteriy).

ta'kidlagan [12]. Xalqaro tajribaga taqqoslaganda, bu model AQShdagi Instructional Coaching yondashuviga o'xshash, ammo mahalliy kontekstga moslashtirilgan [13]. Muhokamada

shuni ta'kidlash lozimki, kouchingni joriy etish uchun o'qituvchilar malakasini oshirish zarur.

Xulosa va takliflar. Kouching yondashuvi asosida bo'ljak biologiya o'qituvchilarining kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimi sharoitida bo'ljak biologiya o'qituvchisidan nafaqat mustahkam nazariy bilimlar, balki chuqur amaliy tajriba va yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalar uyg'unligida faoliyat yuritish talab etiladi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida kouching yondashuvi o'qituvchilik faoliyatini yangicha mazmunda tashkil etishga xizmat qiluvchi samarali metod sifatida e'tirof etilmoqda.

Mazkur yondashuv talabaning mustaqil fikrlash, tahliliy tafakkur va muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Kouching usuli orqali o'quvchi yoki talaba o'z bilimini faqat tayyor ma'lumotlar asosida emas, balki izlanish, tajriba, va muloqot jarayonida mustaqil shakllantiradi. Natijada talabalarda pedagogik tafakkur, ijodiy salohiyat, hamda moslashuvchanlik kabi fazilatlar rivojlanadi.

Pedagog shaxsining kasbiy fazilatlarini shakllantirish esa o'qituvchilik mahoratini takomillashtirishning muhim bosqichidir. Chunki zamonaviy biologiya o'qituvchisi nafaqat fan mazmunini yetkazuvchi mutaxassis, balki o'quvchi shaxsini rivojlantiruvchi, unga ruhiy va intellektual qo'llab-quvvatlovchi mentor sifatida faoliyat yuritishi zarur. Shu jihatdan pedagogning kommunikativ madaniyati, emotsional barqarorligi, metodik saviyasi va motivatsion yondashuvi uning kasbiy yetukligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, kouching yondashuvini ta'lim jarayoniga tatbiq etish biologiya o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini kengaytiradi, talabalarning faol ishtirokini rag'batlantiradi hamda zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi innovatsion o'qitish muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan model reflektiv va interaktiv komponentlarni kuchaytirib, talabalarni mustaqil mutaxassis sifatida shakllantiradi. Kelajakdagi tadqiqotlar bu modelni boshqa fanlar uchun kengaytirishni nazarda tutadi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida kouchingni keng joriy etish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Ta'lim to'g'risida. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Whitmore J. Coaching for Performance. – London: Nicholas Brealey Publishing, 2009.
3. Gallwey T. The Inner Game of Tennis. – New York: Random House, 1974.
4. Sulliyeva S.X., Zokirov Q.G. Biologiya o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Pedagogik mahorat jurnali. 2022, №5. – BuxDU nashriyoti.
6. Enhancing the prospective biology teachers' Pedagogical Content Knowledge through flipped classroom and peer coaching // IOP Conference Series, 2018.
7. Kouching texnologiyasi pedagogik kompetensiyani oshirish shakli sifatida // CyberLeninka, 2021.
8. Biologiya ta'limiga zamonaviy yondashuvlar // CyberLeninka, 2022.
9. GROW model in coaching // Journal of Teacher Education, 2020.
10. Peer-coaching as a component of a professional development model for biology teachers // ResearchGate, 2019.
11. O'zbekiston Milliy ta'lim dasturi. – Toshkent: Axborot vazirligi, 2023.
12. Influence of Coaching Teaching Style on Biology Examinations // SCIRP, 2023.
13. Does coaching, mentoring, and supervision matter for pre-service teachers? // ScienceDirect, 2021.
14. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'ljak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiya // Ilmiy anjumanlar, 2024.
15. Methods for Modelling the Process of Training Future Teachers // ERIC, 2022.